

MULKCHILIK MUNOSABATLARINING MOHIYATI. ULARNING IQTISODIY VA HUQUQIY JIHALARI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
iqtisodiyot yo'nalishi talabalari*

**Maxammadiyev Hojiakbar Usmon o'g'li
Narzullayev Nursulton Shuhrat o'g'li
Abduvohidov Fazliddin Turg'un o'g'li**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mulkchilik munosabatlari mihiyati ularning iqtisodiy huquqiy jihatlari jamiyat iqtisodiy tizimining asosiy munosabatlaridan birini tashkil qilish, insoniyat taraqqiyotining mamahsuli borasida so'z olib borilgan. Mulkchilik munosabatlari moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish hamda jamiyat boyliklarini o'zlashtirish jarayonlarida vujudga keladi. Shunday ekan, mulkchilik munosabatlari – bu mulkka egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish va o'zlashtirish jarayonlarida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.*

Kalit so'z: *Mulkchilik, tadbirkor, iqtisodiyot, mol- mulk, jamiyat.*

Annotation: *In this article, the nature of ownership relations, their economic and legal aspects, organization of one of the main relations of the economic system of society, and the product of human development are discussed. Ownership relations arise in the processes of production of material and spiritual goods and appropriation of society's wealth. Therefore, ownership relations are economic relations that arise in the processes of ownership, use, disposal and appropriation of property.*

Key words: *Ownership, entrepreneur, economy, property, society.*

Mulkka egalik qilish mulkning egasi qo'lida saqlanib turishini bildiradi va yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirishning ijtimoiy shaklini ifodalaydi. Ayrim hollarda mulkka egalik qilish uning egasi ixtiyorida saqlangan holda, undan amalda foydalanish esa boshqalar qo'lida bo'ladi. Bunga ijaraga berilgan mol-mulkni misol qilib keltirish mumkin. Mulkdan foydalanish – bu mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanilishidir. Mol-mulkni o'zlashtirish yuz berganda u daromad olish uchun yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatilishini bildiradi. Mulkni tasarruf etish – bu mol-mulk taqdirining mustaqil hal qilinishidir. U mol-mulkni sotish, meros qoldirish, hadya qilish, ijaraga berish kabi hollar orqali ro'y beradi.

Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmunini uning ajralmas jihatlari (egalik qilish, foydalanish, o'zlashtirish va tasarruf etish) belgilab bersada, bu munosabatlar tavsifi nafaqat alohida mulk shakllarida, balki bitta mulk shakli doirasida ham farqlanishi mumkin. Misol uchun xususiy mulk shaklini olaylik. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bu mulk shakli bir necha ming yillardan buyon hozirgacha saqlanib kelgan. Shu bilan birga bu davr davomida xususiy mulk mazmunida

tubdan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Uning o'zgarishiga xususiy mulkchilikni amalda qo'llash (ro'yobga chiqarish) usullari sabab bo'ldi. Xususiy mulkchilik mehnatga majbur qilish yo'li bilan ro'yobga chiqarilsa, u quldorlik yoki feodal xarakter kasb etadi: ro'yobga chiqarish mulkdorning o'z mehnati yordamida amalga oshirilsa, mayda tovar ishlab chiqarishi uchun xarakterli bo'lgan mehnat qilib qo'lgan xususiy mulk paydo bo'ladi; nihoyat, xususiy mulk yollanma ishchilar tomonidan harakatga keltirilsa, kapitalistk xususiy mulki paydo bo'ladi.

Mulkchilik jamiyatdagi ham huquqiy, ham iqtisodiy munosabatlar mazmunini o'zida ifodalaydi. Mulkchilikning huquqiy va iqtisodiy mazmuni o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi, shu sababli mulkchilik bir vaqtda ham iqtisodiy, ham huquqiy kategoriya hisoblanadi. Bu birlikda, yuqorida ko'rsatilganidek, hal qiluvchi rolni mulkchilikning iqtisodiy tomoni egallaydi. Agar mulk iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqarilmasa, ya'ni o'zlashtirilmasa, ishlab chiqarishda foydalanilmasa yoki mulk egasiga daromad keltirmasa, bunda u «huquqiy» kategoriya sifatida qoladi.

Mulkchilik xo'jalik va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllari orqali iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqariladi. Mulkchilik munosabatlari har qanday jamiyat iqtisodiy tizimining asosiy munosabatlaridan birini tashkil qilib, insoniyat taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi. Mulkchilik munosabatlari moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish hamda jamiyat boyliklarini o'zlashtirish jarayonlarida vujudga keladi. Shunday ekan, mulkchilik munosabatlari – bu mulkka egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish va o'zlashtirish jarayonlarida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Mulkka egalik qilish mulkning egasi qo'lida saqlanib turishini bildiradi va yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirishning ijtimoiy shaklini ifodalaydi. Ayrim hollarda mulkka egalik qilish uning egasi ixtiyorida saqlangan holda, undan amalga foydalanish esa boshqalar qo'lida bo'ladi. Bunga ijaraga berilgan mol-mulkni misol qilib keltirish mumkin. Mulkdan foydalanish – bu mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanilishidir. Mol-mulkni o'zlashtirish yuz berganda u daromad olish uchun yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatilishini bildiradi. Mulknı tasarruf etish – bu mol-mulk taqdirining mustaqil hal qilinishidir. U mol-mulkni sotish, meros qoldirish, hadya qilish, ijaraga berish kabi hollar orqali ro'y beradi. Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmunini uning ajralmas jihatlari (egalik qilish, foydalanish, o'zlashtirish va tasarruf etish) belgilab bersada, bu munosabatlar tavsifi nafaqat alohida mulk shakllarida, balki bitta mulk shakli doirasida ham farqlanishi mumkin. Misol uchun xususiy mulk shaklini olaylik. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bu mulk shakli bir necha ming yillardan buyon hozirgacha saqlanib kelgan. Shu bilan birga bu davr davomida xususiy mulk mazmunida tubdan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Uning o'zgarishiga xususiy mulkchilikni amalda qo'llash (ro'yobga chiqarish) usullari sabab bo'ldi. Xususiy mulkchilik mehnatga majbur qilish yo'li bilan ro'yobga chiqarilsa, u quldorlik yoki feodal xarakter kasb etadi: ro'yobga chiqarish mulkdorning o'z mehnati yordamida amalga oshirilsa, mayda tovar ishlab chiqarishi uchun xarakterli bo'lgan mehnat qilib to'lgan xususiy

mulk 'aydo bo'ladi; nihoyat, xususiy mulk yollanma ishchilar tomonidan harakatga keltirilsa, kapitalistik xususiy mulki paydo bo'ladi. Mulkchilik jamiyatdagi ham huquqiy, ham iqtisodiy munosabatlar mazmunini o'zida ifodalaydi. Mulkchilikning huquqiy va iqtisodiy mazmuni o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi, shu sababli mulkchilik bir vaqtda ham iqtisodiy, ham huquqiy kategoriya hisoblanadi. Bu birlikda, yuqorida ko'rsatilganidek, hal qiluvchi rolni mulkchilikning iqtisodiy tomoni egallaydi. Agar mulk iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqarilmasa, ya'ni o'zlashtirilmasa, ishlab chiqarishda foydalanilmasa yoki mulk egasiga daromad keltirmasa, bunda u «huquqiy» kategoriya sifatida qoladi. Mulkchilik xo'jalik va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllari orqali iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqariladi.

Boshqa tomondan, mulkchilikning huquqiy jihati uning iqtisodiy tomoniga nisbatan faqat bo'ysinuvchi rol o'ynamaydi. Bu shunda ko'rinadiki, ishlab chiqarish vositalariga ma'lum huquqiy egalik qilmasdan, hech kim ishlab chiqarish jarayonini amalga oshira olmaydi, ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarilgan mahsulotdan foydalana olmaydi. Shu sababli mulkchilikning huquqiy normalari (egalik qilish, tasarruf qilish, foydalanish huquqi) iqtisodiy munosabatlarning aniqlashtirilgan ko'rinishi hisoblanadi.

Xuquqiy normalar, bir tomondan, aynan mulkchilik munosabatlarini muhofaza qilish zarurati bilan bog'liq holda vujudga kelsa, boshqa tomondan u tovar ishlab chiqarish sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishda g'oyat muhim rol o'ynaydi. Bu rol shunda ko'rinadiki, tovar xo'jaligi sharoitida ayrim ijtimoiy qatlamlar ishlab chiqarish jarayonida qatnashmasdan, ayirboshlash munosabatlarida ishtirok etib (masalan, savdo vositachilari) mulkdorga aylanish imkoniyati paydo bo'ladi.

Shunday qilib, mulkchilikning huquqiy normalari, birinchidan, ishlab chiqarish vositalari va yaratilgan moddiy ne'matlarning muayyan shaxslarga (huquqiy yoki jismoniy) tegishli ekanligini, ikkinchidan, mulk egalari qonun bilan qo'riqlanadigan vakolatlarini va nihoyat, uchinchidan mol-mulkni himoya qilish usullarini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SH.Sh.Shoha'zamiy Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari. Toshkent "Iqtisod-moliya" 2015.

2. Yodgorov V.U., Mirjalilova D.SH. Ko'chmas mulkdan foydalanishni tashkil etish va boshqarish. O'quv qo'llanma.-T.: Toshkent arxitektura-qurilish instituti, 2014.

3. T.T.Jo'rayev. Iqtisodiyot nazariyasi. (O'quv qo'llanma). –T.: «Fan va texnologiya», 2017.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat sttistika qo'mitasi, Davlat mulkini boshqarish Davlat qo'mitasi ma'lumotlar.

11. Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG 'ICH TA'LIM JARAYONIDA TOLERANTLIKNI TARBIYALASH USULLARI VA VOSITALARI. Finland

International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 975-980.

12. Adhamjonov, M. (2022). IMPLEMENTATION OF EFFECTIVE ORAL CORRECTIVE FEEDBACK IN ENGLISH LANGUAGE CLASSES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 4, 30-33.

13. Адхамжонов, М. (2022). МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. PEDAGOG, 1(2), 402-406.

14. Muhammadali, A. (2023). HISTORY OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES AND ITS METHODOLOGY. Journal of new century innovations, 29(1), 127-131.

15. Muhammadali, A. (2023). НЕМИС ТИЛИНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(10), 417-422.

16. Muhammadali, A. (2023). USE OF INTERACTIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. Journal of new century innovations, 27(5), 71-74.

17. Adhamjonov, M., & Nurillaev, E. (2020). MODERN REQUIREMENTS FOR COMMUNICATIVE COMPETENCE OF A FOREIGN LANGUAGE TEACHER. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 155-161.